

**Oliy ta'lif, fan va innovatsiyalar vazirligi ichki audit xizmati faoliyatining
2024-yil 1-chorak yakunlari bo'yicha**
HISOBOTI

I. Umumiylumotlar

Oliy ta'lif, fan va innovatsiyalar vazirligi Ichki audit boshqarmasi 13 ta shtat birligidan bugungi kunda 11 nafar xodimlar faoliyat yuritib kelmoqda. Shundan 10 nafar xodim milliy sertifikatga ega.

Shuningdek vazirlik tizimidagi Oliy ta'lif muassasalarida Ichki audit xizmati bosh auditorlari soni 64 ta shtat birligini tashkil etib, bugungi kunda faoliyati yo'lgan qo'yilgan.

II. Ichki audit yillik rejasida tasdiqlangan ichki audit tadbirlarining hisobot davrida rejalshtirilgan qismining bajarilishi holati.

Vazirlikning Ichki audit boshqarmasining 2024 yil 1-chorak ish rejasiga asosan jami 29 ta ta'lif muassasalarida nazorat tadbirlarini o'tkazishi rejalshtirilgan, shundan 28 ta ta'lif muassasasi faoliyati o'rghanildi. Ushbu o'rghanishlar natijasida jami 1391,2 ming so'mlik moliyaviy xato va kamchiliklar aniqlandi. 2 ta ta'lif muassasida aniqlangan 402,5 ming so'mlik moliyaviy qonun buzulish holatlariga huquqiy baho berish uchun xuquqni muxofaza etish organlariga yuborildi.

Shuningdek, rejadan tashqari 3 ta ta'lif muassasasida o'tkazilgan nazorat tadbirlari natijasida aniqlangan 6404,5 ming so'mlik moliyaviy qonun buzulish holatlariga huquqiy baho berish uchun to'plangan hujjatlar xuquqni muxofaza etish organlariga yuborildi.

III. Hisobot davrida o'tkazilishi rejalshtirilgan, lekin amalga oshirilmagan ichki audit tadbirlari to'g'risidagi ma'lumotlar.

Vazirlikning Ichki audit boshqarmasining 2024 yil 1-chorak ish rejasiga kiritilgan 29 ta ta'lif muassasasidan, 28 ta ta'lif muassasasida nazorat tadbiri o'tkazildi. Rejaga kiritilgan Andijon viloyati Bo'ston tuman kasb-hunar maktabi faoliyati tuman prokururasi tomonidan o'rganilayotganligi sababli nazorat tadbiri o'tkazilmadi.

IV. Ichki audit obyektlari tomonidan chora-tadbirlar rejasining bajarilishi to'g'risidagi ma'lumotlar.

Vazirlikning Ichki audit boshqarmasi tomonidan o'tkazilgan profilaktik tadbirlar natijasi bo'yicha o'rnatilgan tartibda 40 ta taklif va tavsiyalar berildi. Bugungi kunda shulardan 37 tasi bajarildi.

V. Ichki audit xizmati faoliyatini rivojlantirish bo'yicha takliflar.

Vazirlikning Ichki audit xizmati samaradorligini oshirish uchun boshqarmada ishlayotgan xar bir xodimga UzASBO dasturiy majmuasiga kirish uchun login, parol berish hamda ushbu dasturga tizimdagagi 567 ta tashkilotlarni biriktirish lozim.

VI. Ichki audit xizmati faoliyati sifatini ta'minlash va oshirish bo'yicha amalga oshirilgan ishlar.

Vazirlikning 14.02.2024 yildagi 35-sonli buyrug'i bilan vazirlik tizimida budget va budjetdan tashqari mablag'larni maqsadli va samarali ishlatilishi ustidan masofaviy tarzda monitoring va nazoratni olib borish maqsadida "**Situatsion markaz**" tashkil etildi. "Situatsion markaz"da ishslash uchun boshqarmanning 4 nafar xodimlari rasman mas'ul etib biriktirildi. Ushbu xodimlarga Elektron raqamli imzo **Token** kalitlari olindi hamda markaz faoliyati yo'lga qo'yildi.

VII. Aniqlangan tizimli kamchiliklar, xavflar va ularning oldini olish hamda bartaraf etish bo'yicha amalga oshirilgan ishlar

Vazirlikning 14.02.2024 yildagi 36-son buyrug'i bilan tasdiqlangan Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi tizimidagi oliy ta'lim muassasalari, tashkilotlar, akademik litseylar va professional ta'lim muassasalarining 2024 yil uchun shtatlar jadvallarini to'g'ri tuzilishini, xarajatlar smetasida stipendiyalar to'lovi uchun mablag'larni to'g'ri rejalashtirilishini joyida o'rghanish uchun **Ichki audit boshqarmasi xodimlari** hududlardagi oliy ta'lim muassasalari, tashkilotlar, akademik litseylar va professional ta'lim muassasalariga **biriktirildi**. Joylarda o'tkazilgan o'rghanish tadbirlari jarayonida amaliy yordam ko'rsatildi va shtatlar jadvallariga me'yordan ortiq shtatlarni kiritish va xarajatlar smetasida ortiqcha mablag'lar rejalashtirilishi oldi olindi.

VIII. Vazirlik va idora faoliyatida budget intizomini mustahkamlash, xavflarni profilaktika qilish hamda budget xarajatlari natijadorligi va samaradorligini oshirish bo'yicha takliflar.

1. OTMlardagi har bir fakultetda "HEMIS" dasturiga talabalarning qabuli, kursdan kursga o'tishi, talabalar safidan chetlatilishi, akademik ta'tildaligi hamda boshqa OTMlarga o'qishni ko'chirilishi to'g'risida ma'lumotlar o'z vaqtida va to'liq kiritilishi uchun bir nafar xodimni mas'ul (javobgar) etib belgilash choralar ko'rish taklifi berildi.

2. Talabalarga shartnomaga asosida ko'rsatiladigan xizmatlar hisobini yuritish bo'yicha "**kontrakt.edo.uz**" axborot tizimidan vazirlikning Ichki audit boshqarmasi xodimlarining to'g'ridan-to'g'ri foydalanishi bo'yicha imkoniyatlar yaratish bo'yicha choralar ko'rilmogda.

3. Talabalarga shartnomaga asosida ko'rsatiladigan xizmatlar hisobini yuritish bo'yicha "**kontrakt.edo.uz**" axborot tizimi bilan "**UzASBO**" dasturiy majmuasi bir-biriga integratsiya qilish ishlari olib borilmoqda.

4. OTMlarning "HEMIS" dasturida pedagog xodimlarning yillik yuklamalari hamda ularning bajarilishi to'g'risidagi hisobotlarni "**UzASBO**" dasturiy majmausiga integratsiya qilish orqali ushbu pedagog xodimlarga ish haqini hisoblashda avtomatik ravishda nazoratini amalga oshirilishi yo'lga qo'yilmoqda.